MDIS Tashkent

International Scientific Journal of Management, Marketing and Finance

MANAGEMENT, MARKETING AND FINANCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



VOLUME 3, ISSUE 5

Management Development Institute of Singapore in Tashkent

International scientific journal Management, Marketing and Finance

VOLUME 3 ISSUE 5
MAY 2026

“Menejment, marketing va moliya” xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 5-soni

ISSN 3030-3745 | WWW.JMMF.UZ

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 27-sentabrdagi 361/5-sonli qaroriga muvofiq dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Texnika, iqtisodiyot, yuridik (huquq) fanlari yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Tashkent 2026

ISSN 3030-3745
"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnali 2026-yil 5-soni – 2026-yil may.

Tahrir hay'ati

Tahrir hay'ati raisi

Mamatkulov Ilhom Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d.*

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Ishanxodjayeva Dildora Aleksandrovna	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti Tadqiqot, innovatsiyalar va xalqaro munosabatlar bo'yicha direktor, i.f.f.d. (PhD)*

Tahrir hay'ati mas'ul kotibi

Hasanov Tohir Abdurashidovich	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti konsultanti, i.f.d., dotsent.*

Tahrir hay'ati a'zolari

Eric Kuan	*Singapur menejmentini rivojlantirish instituti prezidenti (MDIS, Singapore), PhD, professor.*
Paul van Gardingen	*Bangor universiteti prorektori (Bangor University, UK), PhD, professor.*
Abigail Moriarty	*Sanderland universiteti Markaz rahbari (University of Sunderland, UK), PhD, professor.*
Rob Burton	*Tissayd universiteti decani (Teesside University, UK), PhD, professor.*
Mamatkulov Abdurashid	*Toshkent davlat agrar universiteti professori, i.f.d., professor.*
Bektemirov Abdumalik	*Samarqand iqtisodiyot va instituti kafedra mudiri, i.f.d., professor.*
Raxmonov Nuriddin	*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Moliya va moliyaviy texnologiyalar fakulteti dekani, PhD*
Aliyeva Deniza	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.d.*
Abdullayev Baxrom	*Urganch davlat universiteti rektori, fiz-mat.f.d.,dotsent.*
Raximxodjayeva Nodira	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dekani, i.f.f.d.*
Xo'jayev Jamol	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, t.f.f.d.*
Kurbonova Dilafruz	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti dotsenti, i.f.f.d.*
Bektemirov Abduxamid	*Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD.*
Veluthedan Sreekanth	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Alekha Panda	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Firas Halawani	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Maged al Dubai	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*
Manjunath Bharmappa Ramesh	*Toshkent shahridagi Singapur menejmentini rivojlantirish instituti xorijiy o'qituvchisi, PhD, professor.*

"Management, Marketing and Finance" xalqaro ilmiy jurnalida har bir maqolaga DOI raqam olinib, Polshaning Indeks Copernikus (OAK12), Yevropaning Zenodo va Open Aire, Rossiyaning Cyberlinenka, Angliyaning Europub xalqaro ilmiy bazalariga va www.jmmf.uz saytiga joylanadi, Google akademiya xalqaro ilmiy qidiruv tizimida indekslanadi.

© Management Development Institute of Singapore in Tashkent
© International Scientific Journal "Management, Marketing and Finance"
© Authors

KIRISH SO‘ZI

Ma’lumki, bozor munosabatlari hukmron bo‘lgan iqtisodiy tizimda erkin raqobat muhitini shakllantirish hamda aholi turmush darajasini yuksaltirishda marketing faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida marketing nafaqat mahsulotni sotish vositasi, balki korxona va tashkilotlar strategik boshqaruvida muhim rol o‘ynovchi mexanizm sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy yondashuvlarga ko‘ra, marketing — bozorda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish vositalari, mahsulot ishlab chiqarish va uni bozorga olib chiqishdagi tizimli yondashuvlar, bozor muhitidagi o‘zgarishlarga moslashish, xaridorlarga tabaqalashtirilgan yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, innovatsion va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish, kon’yunktura o‘zgarishlarini tahlil qilish hamda marketing kommunikatsiyalarini, xususan reklama va PR faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga oladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ta’lim sohasiga, xususan oliy ta’lim tizimiga berilayotgan keng ko‘lamli e’tibor natijasida marketing fani zamonaviy bilim sohasi sifatida shakllanmoqda. Bozor iqtisodiyotida marketing tamoyillarining qo‘llanilishi, u orqali yuqori samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratishda ham marketing yondashuvlari muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona va tashkilot marketing strategiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi orqali raqobatbardosh ustunlikka erisha oladi.

Ayniqsa**, “Management, Marketing and Finance” (“Menejment, Marketing va Moliya”)** nomli xalqaro ilmiy jurnal sahifalarida chop etilayotgan maqolalar orqali mamlakatimizda turli sohalarda marketing yondashuvlarining amaliy samaradorligi chuqur tahlil qilinmoqda. Bu esa, marketingning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

I. Mamatkulov,
Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti rektori, i.f.d., professor

2026-yil 6-may kuni Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (TSMRI) Biznes va turizmni rivojlantirish markazi xodimlari 2026-yillik ish rejasiga muvofiq, Angren shahar hokimligi hamkorligida 5-may “Kasb va mehnat kuni” hamda 9-may “Xotira va qadrlash kuni” bayramlari munosabati bilan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan tadbirda ishtirok etdilar.

Tadbirda TSMRI tomonidan yoshlarga qisqa o‘quv kurslarini tamomlaganlari uchun 400 dan oshiq sertifikatlar tantanali ravishda topshirildi.

Shuningdek, Angren rezina va shina zavodi homiyligida 4-son texnikumi uchun 45 mlrd so‘m mablag‘iga yangi rekonstruksiyadan chiqarilayotgan texnikum binosi qurilishi bilan yaqindan tanishdilar. Ushbu binoda 2026–2027 o‘quv yili uchun yangi turizm yo‘nalishida ta’lim oladigan yoshlarni qabul qilish yo‘lga qo‘yiladi.

Hozirgi kunda Angren shahar hokimligi va TSMRI hamkorligida dual ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taklif loyihasi kiritilgan.

Mazkur yangi loyihalar ta’lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, sohaga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.









“YANGI O‘ZBEKISTON TALABALARI OLIMPIADASI”NING TOSHKENT SHAHAR BOSQICHI DOIRASIDAGI SUZISH MUSOBAQALARIGA START BERILDI

Bugun Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish institutida “Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi”ning Toshkent shahar bosqichi doirasidagi suzish musobaqalarining ilk kuni yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur nufuzli sport tadbirida respublikamizning 30 dan ortiq davlat va xalqaro oliy ta’lim muassasalaridan 100 nafardan ortiq iqtidorli talaba-yoshlar ishtirok etib, sportning suzish turi bo‘yicha o‘zaro bellashdilar. Musobaqalarda ishtirokchilar tomonidan sport mahorati, jamoaviy hamjihatlik, kuchli tayyorgarlik hamda g‘alabaga bo‘lgan intilish namoyon etildi.

Tadbirning asosiy maqsadi talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, sportga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida do‘stona sport aloqalarini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Musobaqaning birinchi kuni davomida bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha saralash va bellashuv bosqichlari o‘tkazildi. Qizg‘in va murosasiz kechgan bahslar ishtirokchilarning yuqori tayyorgarlikka ega ekanligini yana bir bor namoyon etdi.

Shuningdek, musobaqaning yakuniy bosqichlari hamda g‘olib va sovrindorlarni aniqlash jarayonlari ertaga, musobaqaning ikkinchi kuni davomida bo‘lib o‘tadi. Yakuniy natijalarga ko‘ra eng kuchli ishtirokchilar munosib taqdirlanadi. “Yangi O‘zbekiston talabalari olimpiadasi” doirasida o‘tkazilayotgan mazkur musobaqalar yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirish, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish hamda talabalarning jismoniy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.









Joriy yilning 18 may kuni Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (TSMRI) prorektori D.Ishanxo‘jayeva hamda turizm sohasi vakillaridan iborat delegatsiya Samarqand shahrida joylashgan “Ipak yo‘li” Xalqaro Turizm va Madaniy Meros Universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida universitet rektori Muxsin Murodullayevich raisligida davra suhbati va ikki tomonlama muzokaralar tashkil etildi. Uchrashuv davomida turizm sohasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, xalqaro tajribalar, mexmonxona industriyasidagi zamonaviy yondashuvlar hamda turizm klasterlarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, ikki tomonlama ilmiy hamkorlik, talabalar almashinuvi va xalqaro turizm forumlarini birgalikda tashkil etish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.









"STEKLOPLASTIK" LLCINTERNAL FACTORS THAT INFLUENCE A COMPANY'S MARKETING STRATEGY

Musayeva Shoira Azimovna
Professor of Samarkand Institute of Economics and Service
Orsid code -0009-0000-9577-6976
https://doi.org/10.5281/zenodo.20272925

Abstract. *This article examines the quality and modernity of the manufactured product, the introduction of a quality management system, the reduction of the tax burden on product types, the significant impact of this factor of production on the value of the enterprise, increasing labor productivity, and increasing the potential of the enterprise.*

Keywords: *enterprise, market, factor, efficiency, product, potential, productivity*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va zamonaviyligi, sifat menedjmenti sistemasi joriy etilishi, mahsulot turlariga soliq yukining kamayishi, ishlab chiqarishning mazkur omili korxona qiymatiga katta ta'siri, mehnat unumdorligini oshirish, korxonaning salohiyatini oshirish ko'rib chiqilgan.*

Kalitli so'zlar: *Korxona, bozor, omil, samaradorlik, mahsulot, salohiyat, unumdorlig.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются качество и современность производимой продукции, внедрение системы управления качеством, снижение налоговой нагрузки на виды продукции, существенное влияние этого фактора производства на стоимость предприятия, повышение производительности труда и увеличение потенциала предприятия.*

Ключевые слова: *Предприятие, рынок, фактор, эффективность, продукт, потенциал, производительность*.

Introduction. In the modern era of development of the Republic of Uzbekistan, one of the most important tasks is to further deepen t he structural restructuring of the sectors of the national economy. The implementation of this task requires identifying trends in changes in society, analyzing them and conducting economic, social and technological policies accordingly. By the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev Based on a thorough analysis of complex global processes and the results of the development of our country, the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026, consisting of seven priority areas, was approved in order to further increase the well-being of our people in recent years, transform economic sectors and rapidly develop entrepreneurship, unconditionally ensure human rights and interests, and establish priority areas for reforms aimed at forming an active civil society based on the principle of "For the sake of human dignity"..

Structural restructuring and modernization of the economy require a radical improvement and development of existing approaches, methods and techniques in management. Such a requirement is an important task not only for large industrial enterprises, but also for other enterprises and organizations in all sectors. Therefore, there is a need to widely use the achievements of modern science in strategic research, in-depth analysis and improvement of management systems in organizations. In implementing prospective management, the use of

strategic marketing methodology, which is one of the newest directions in marketing science, is of particular importance.

Analysis of literature on the topic. An analysis of the existing literature on marketing shows the need to improve modern marketing principles, brand promotion methods and a flexible approach to consumer requirements. In his textbook on marketing strategies, the expert RGIbragimov states the following: “Marketing strategy is understood as the use of a model of the principles of the enterprise's behavior in the market, established for a certain period of time. With its help, the enterprise seeks to ensure its success.”Many economists have been involved in the development and implementation of marketing strategies. Among them are such famous scientists as F. Kotler, David Aeker, Clayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, and Jay Bayer.

While the research conducted in the field of marketing in our country for many years is based on national characteristics, it is also necessary to recognize the scientists who have made a significant contribution to the development of marketing theory. These include R.Ibragimov, YO.Abdullaev, A.Saliev, M.Sharifkhodjaev, D.Rakhimova, Sh.Ergashkhodjaeva, Sh.Musayeva and others..

Research methodology. The study used a systematic approach, marketing analysis, benchmarking, and digital metrics. Mass surveillance methods were used to collect and analyze data from social media platforms.

Analysis and results. Along with external factors that affect the strategic position of an enterprise, a number of internal factors are also of great importance. While we have analyzed external environmental factors in previous studies, we now need to study its internal environmental factors.

In particular, the internal factors influencing the strategy of Stekloplastik LLC depend on a number of factors that directly shape its activities (Figure 1).




Figure 1. Marketing strategy of Stekloplastik LLC influencing internal factors.

The volume of products produced at Stekloplastik LLC is determined, on the one hand, by the demand for it, and on the other hand, by the availability of production capacities for its

production. The organization of production in the company is well established, and today, as we mentioned above, more than 400 types of products are produced in 8 product groups. Great attention is paid to the quality and modernity of each manufactured product.To improve the quality of manufactured products, the enterprise has implemented the ISO 9001:2000 Quality Management System.

At "Stekloplastik" LLC More than 90 types of manufactured products are included in the localization program, and the reduction in the tax burden on these types of products will directly have a positive impact on the value of the enterprise.

This factor of production has a significant impact on the value of the enterprise.At "Stekloplastik" LLCThe company's manager, chairman of the supervisory board, ensures the effective management and development of the company's activities. This fact must be taken into account in the valuation process, in particular when calculating discount rates, since in the event of the sale of the company, its plans for its future activities may change. Director of the company and Deputy Director for Foreign Economic Relations, Deputy Director for Distribution, Deputy Director for Production and Deputy Directors for General AffairsForms the management of Stekloplastik LLC.

Each link in the management chain plays a significant role in creating the value of the enterprise. Each manager must have leadership, communicative, oratorical and foresight skills. These qualities are embodied in the chairman of the supervisory board, the highest executive in Stekloplastik LLC, under whose leadership all employees are subordinate and work in harmony. Such a chain of management helps to eliminate all errors and shortcomings, and this is a factor that directly contributes to increasing production, increasing labor productivity, increasing the potential of the enterprise, and increasing the value of the enterprise.

As we know, it is turnover that determines and creates the main value of any enterprise. To this dayThese state programs and tenders that make the movement of goods of “Stekloplastik” LLC possible have been taking place. There are several objective reasons why “Stekloplastik” LLC is not working well with customers, especially the population. Firstly, the remoteness of this enterprise from the city center, the main factor in fully satisfying the needs of each client is time and convenience. “Stekloplastik” LLC is located 25 km from the city center, which poses a serious threat to the optimal satisfaction of customer needs. Secondly, the inability to be informed about bank settlement data in a timely manner, delays in payments as a result of the influence of the above factors when working with the bank. Thirdly, the imperfection of the mechanism for accepting individual orders and placing orders for production. Fourthly, delays in payments by the client after signing contracts and delays in the delivery of goods by the enterprise. Such shortcomings are seriously affecting the decline in the value of Stekloplastik LLC.

The need to assess the value of human resources stems from the conclusion that people in any enterprise are as important a factor as all other economic resources (raw materials, means of production, fixed and working capital, information, technology, etc.).

The quality of labor resources directly affects the competitive capabilities of the enterprise and is one of the important areas for creating competitive advantages. The theoretical basis of new economic forms of work with personnel is the concept of "human resources". The essence of this concept is the application of economic criteria to assess the role of the human factor in production, organization and management, as well as in building the entire system of personnel work.

The concept of "human resources" is based on the possibility of applying economic assessments of the ability of people to generate a certain income. The higher the individual productivity of an employee's work and the longer his career, the more income he brings and the more valuable he is to the enterprise.In general, Stekloplastik LLC has selected employees with high productivity, and their working life has been long.

Human resources should be understood as the sum of the capabilities and capabilities of personnel to ensure the effective functioning of the enterprise. By its nature, essence and content, human resources are included in the intangible assets of the enterprise. At the same time, it cannot be included in the intellectual property, since by its nature this potential is volatile, does not have legal protection and cannot be alienated or sold for use separately from specific individuals.

80 percent of employees and workers working at Stekloplastik LLC work in their own specialty. This is not necessarily a negative situation, but changes in this percentage can have a negative or positive effect on the value of the enterprise.

KThe financial activities of enterprises, like production activities, also form the value of the enterprise. In 2025, Stekloplastik LLC had securities worth 98 million soums, other long-term financial investments worth 96 billion soums and short-term investments worth 209 billion soums, and received income from total financial activities of 2,344 million soums, which has a positive impact on the formation of the value of the company.All of the factors listedWe can see the positive or negative impact on the value of Stekloplastik LLC in its further activities in the table below.

To sum up,The internal factors that affect the value of Stekloplastik LLC are those that the enterprise itself has the opportunity to positively influence for its own benefit. External factors directly affect the value of the enterprise under the influence of the government and the market. For this, the enterprise itself must adapt to the external environment.

REFERENCES

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan, April 30, 2023
2. Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan. - T.: Uzbekistan, 2016. - 56 p.
3. Mirziyoyev Sh.M. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader's activities. - T.: Uzbekistan, 2017. - 104 p.
4. Musaeva Sh.A. Marketing research. Textbook Publishing and creative department of LLC "STAR-SEL". Samarkand-2023
5. Musaeva Sh.A. Integrated marketing communication Textbook "Mahorat" publishing house, Samarkand - 2022
6. Musaeva Sh.A., Usmonova DI Innovative Marketing “TURON eDITION” 2021 Textbook.
7. Usmonova DI Strategic brand management. Textbook.Publishing and creative department of “STAR-SEL” LLC. Samarkand-2022

SAMARQAND VILOYATIDA MADANIY MEROS OBYEKTLARINI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

F.F. Erkinova
SAMDAQU “Biznesni boshqarish” kafedrasi tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20272982

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Samarqand viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash jarayonida mavjud muammolar tahlil qilinadi, xalqaro tajriba asosida samarali yechimlar taklif etiladi hamda merosni saqlash tizimini modernizatsiya qilish yo‘nalishlari belgilab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *qayta tiklash, tarixiy yodgorliklar, konservatsiya, iqtisodiy infratuzilma, monumental san’at, UNESCO, tabiiy eroziya, monitoring tizimi.*

Kirish: O‘zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlarini asrash, ularni qayta tiklash va kelajak avlodga borligicha yetkazish masalasi davlat siyosatining bugungi kundagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish, tarixiy yodgorliklarni ilmiy asosda konservatsiya qilish hamda ularni turizm sohasi bilan uyg‘unlashtirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlarni amalga oshirish borasida bir qator muhim huquqiy-hujjatlar qabul qilingan ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi “Madaniy merosni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PQ–89-son Qarori, 2023-yil 18-iyuldagi “Tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasini saqlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–144-son Qarori, hamda 2024-yil 10-yanvardagi PF–102-son Farmon bilan tasdiqlangani “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni xalqaro turizm zanjiriga integratsiya qilish dasturi” ushbu sohadagi ishlarni yanada takomillashtirish va samarali boshqarishga asos bo‘ladi.

Qabul qilingan Prezident qarorlarida madaniy meros obyektlarini saqlash, ularni qayta tiklash (restavratsiya qilish)da, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni joriy etish va turizm sohasi bilan bog‘lashning aniq mexanizmlari belgilab berilgan. Ushbu chora-tadbirlar madaniy merosni faqat ma’naviy boylik emas, balki iqtisodiy resurs sifatida ham ko‘rish, ya’ni turizm orqali hududni barqaror rivojlanish omiliga aylantirishga xizmat qilishi yo‘llari asislab berilgan.

Lekin bugungi kunda amalda, madaniy meros obyektlarini saqlash jarayonida hali ham qator muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim yodgorliklar iqlim sharoitlar ta’sirida yemirilmoqda, hududdagi moliyaviy va iqtisodiy infratuzilma cheklovlari sababli ayrim obidalar to‘liq qayta tiklash (restavratsiya) qilinmayapti. Tarixiy madaniy meros obyektlarining atrofida olib borilayotgan tartibsiz qurilish ishlari ularning asl me’moriy qiyofasiga zarar yetkazmoqda. Demak, hududda madaniy meros obyektlarini saqlab qolishni taminlash hududning rivojlanishida ham o‘z o‘rniga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida madaniy merosni saqlashning xalqaro standartlari hisoblangan **restavratsiya** (obyektning tarixiy ko‘rinishini tiklash) va **konservatsiya** (mavjud holatni yanada yemirilishdan saqlab qolish va mustahkamlash) tushunchalari o‘rtasidagi farqlar inobatga olindi. Muallif yodgorliklarning asl me’moriy qiymatini saqlashda 'Veneziya xartiyasi' tamoyillariga tayangan holda, 'qayta tiklash' tushunchasini ilmiy restavratsiya kontekstida tahlil qiladi.

Taxlil va natijalar: Samarqand qadimdan Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu hududda shakllangan me’morchilik, san’at va ilmiy meros butun insoniyat tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda viloyatda 1576 ta madaniy meros obyektlari davlat ro‘yxatiga kiritilgan. Ularning 864 tasi — me’moriy, 573 tasi — arxeologik, 36 tasi — monumental san’at yodgorliklari, 103 tasi esa diqqatga sazovor joylar sifatida qayd etilgan. Shundan 43 tasi UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan (1-jadval).

1-jadval

Samarqand viloyatidagi madaniy meros obyektlarining turlari to‘g‘risida ma’lumot

Turi	**Obyektlar soni**	**Ulushi (%)**
Me’moriy yodgorliklar	864	55
Arxeologik yodgorliklar	573	36
Monumental san’at namunasi	36	2
Diqqatga sazovor joylar	103	7
Jami	**1576**	**100**

Manba: Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1- jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, viloyatdagi yodgorliklarning katta qismi me’moriy – 55 (%) foizi va arxeologik obidalar - 36 (%) foizini tashkil etmoqda. Bu holat Samarqandda tarixiy shaharsozlik, me’morchilik va san’at sohalarining qadimdan rivojlanganligidan dalolat berib turibdi.

Samarqand viloyatida madaniy meros ob’ektlarini asrashga ajratilayotgan mablag‘lar hajmi muntazam oshib bormoqda (2-jadval).

2-jadval

Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlashga ajratilgan mablag‘lari to‘g‘risida ma’lumot

(mlrd so‘m)

Yil	Jami ajratilgan mablag‘lar	Shu jumladan		
		Davlat byudjeti	Xalqaro grantlar	Xususiy sektor
2019	48,3	45,2	2,3	0,8
2020	54,3	50,1	3,0	1,2
2021	64,7	58,6	4,1	2,0
2022	76,5	67,4	5,6	3,5
2023	84,2	73,9	6,2	4,1
2024	90,4	78,0	7,4	5,0

Manba: Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mablag‘lar dinamikasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2019–2024-yillarda jami ajratilgan mablag‘lar 87,1% ga oshgan. Bu ko‘rsatkich mamlakatdagi o‘rtacha yillik inflyatsiya darajasidan yuqori bo‘lib, sohaning real iqtisodiy o‘sishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, xususiy sektor ulushining 6 baravardan ziyod (0,8 mlrd so‘mdan 5,0 mlrd so‘mga) o‘sishi viloyatdagi turizm tushumlarining ortishi va madaniy meros obyektlarining investitsion jozibadorligi oshganligi bilan bevosita korrelyatsiya hosil qiladi. Xususiy sektor tomonidan 2020 yilda 1,2 mlrd so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2024 yilda 5,0 mlrd so‘m ajratilgan, bu 2020 yilga nisbatan mlrd so‘m ko‘p. Bu esa hududda iqtisodiy barqarorlik rivojlanib, viloyatda infratuzilma ham shakllanayotganidan dalolat berib turibdi.

Samarqand viloyatida madaniy meros ob’ektlarini asrash, qayta tiklash bo‘yicha olib borilayotgah ishlarga qaramasdan bu sohani yanada rivojlantirishda kamchilik va muammolarga duch kelinmoqda (3-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlashdagi uchraydigan ba’zi mavjud muammolar va yechimlari to‘g‘risida ma’lunot

t/r	Muammolar	Kelib chiqish sababi	Ta’sir darajasi	Muammolarni yechim yo‘llari
1	Madaniy meros obyektlarining yemirilishi	Tabiiy eroziya (suv, shamol)	Yuqori	Doimiy monitoring va konservatsiya tizimini joriy etish
2	Saqlashda moliyaviy resurslarning yetishmasligi	Byudjet cheklovlari	O‘rta	Xalqaro grantlar va investorlarni jalb etish
3	Atrofdagi qurilish ishlarining tartibsiz olib borilayotganligi	Shaharsozlikdagi tartibsizlik	Yuqori	Himoya zonalarini yaratish va nazoratni kuchaytirish
4	Kadrlar yetishmasligi	Malakali restavratorlar tanqisligi	Yuqori	OTMlarda qayta tiklash (restavratsiya) yo‘nalishlarini kengaytirish
5	Tashrifchi (turist)larning madaniyati pastligi	Turizmda nazoratning sustligi	O‘rta	Axborot-ta’lim dasturlarini amalga oshirish


Bugungi kunda, Samarqand viloyatida 2025-yil holatiga 973 ta arxeologik, 564 ta me’moriy, 36 ta monumental va 34 ta diqqatga sazovor joylar mavjud bolib, shulardan 120 tasi yomon (ta’mirtalab) holatda ularni zudlik bilan qayta ta’mirlash (restavratsiya) ishlarini olib borish zarur. 2024-yilda esa 54 ta obyektda konservatsiya ishlari amalga oshirilgan.

Oxirgi yillarda Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya qilish sohasida muhim yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, amaliyotda hali ham tizimli muammolar mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish masalasi nafaqat tarixiy merosni asrash, balki viloyatning turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va xalqaro nufuzini mustahkamlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallifning fikricha, madaniy merosni muhofaza qilish tizimida eng katta to‘siqlar moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali kadrlar tanqisligi hamda texnik jihozlanganlik bugungi talabga javob bermasligi bilan bog‘liq (4-jadval).

4-jadval

2024 yil bo‘yicha Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimidagi asosiy muammolar ulushi to‘g‘risida ma’lumot



Yuqoridagi diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tizimdagi eng og‘ir nuqta — moliyaviy resurslar yetishmasligi (34%) bo‘lsa-da, kadrlar tanqisligi (27%) ham deyarli shunga yaqin ko‘rsatkichni tashkil etmoqda. Bu esa sohada faqatgina moliyaviy emas, balki intellektual investitsiyalarga ham ehtiyoj yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ko‘plab restavratsiya loyihalari cheklangan byudjet sharoitida amalga oshirilmoqda yoki umuman moliyalashtirilmayapti. Shuningdek, restavratsiya jarayonlarida zamonaviy texnologiyalar yetarli darajada qo‘llanilmagani va nazorat mexanizmlarining sustligi ham yodgorliklarning sifatli saqlanishiga katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda, Samarqand viloyatida restavrator, arxeolog, konservator va san’atshunos mutaxassislar soni kamchilikni tashkil etgani bois, aksariyat hollarda, bu soha mutaxassislarini Toshkent yoki Buxorodan jalb qilinmoqda, bu esa xarajatlarning ortishiga hamda ish muddatining cho‘zilishiga olib kelmoqda.

Ko‘plab obyektlarda restavratsiya ishlari asosan xalqaro grantlar va donor tashkilotlar ko‘magida olib borilmoqda, mahalliy byudjet hisobidan amalga oshiriladigan loyihalar esa cheklangan hajmda, juda kam. Natijada ayrim obidalar uzoq muddat ta’mirlanishsiz qolib, yemirilish jarayoni tezlashmoqda.

Muallif tomonidan ilmiy tadqiqot olib boorish jarayonida bu muammolarni ba’zi echimlari bo‘yicha takliflar keltirgan (5-jadval).

5-jadval

Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimidagi asosiy muammolarning yechimlari bo‘yich takliflar

t/r	Muammo	Amaldagi holat	Taklif etilayotgan yechim
1	Moliyaviy resurslarning cheklanganligi	Davlat byudjeti ulushi 60% dan oshmaydi	Xalqaro grantlar, xususiy sektor va homiylik mexanizmlarini kengaytirish

2	Kadrlar tanqisligi	Malakali restavratorlar soni 100 nafardan kam	SamDAQUda “Madaniy meros texnologiyalari” yo‘nalishi bo‘yicha maxsus yonalish ochish zarur
3	Texnik baza eskiligi	Restavratsiya asbob-uskunalari yetishmaydi	Yangi texnologiyalarni import qilish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish
4	Huquqiy-me’yoriy bazaning eskiligi	2001-yilda qabul qilingan qonun hali ham amal qiladi	“Madaniy meros to‘g‘risida”gi yangi qonunni ishlab chiqish
5	Monitoring tizimining sustligi	Obyektlar muntazam tekshiruvdan o‘tmaydi	GIS texnologiyalari asosida raqamli monitoring tizimini joriy etish

Manba: Muallif tomonidan mavjud ma’lumotlar asosida tuzilgan.

5-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun tizimli, kompleks yondashuv zarur. Avvalo, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, restavrator kadrlar tayyorlashni kuchaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va asosan mahalliy jamoa orasida tishuntirish olib borib, saqlash jarayoniga jalb etish zarur, bundan tashqari, Samarqand viloyatida madaniy meros, turizm va mahalliy iqtisodiyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Har bir tarixiy obida atrofiga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish, “mahalla – meros” modeli asosida aholining ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish lozim degan fikrdamiz.

Xulosa va takliflar: Samarqand viloyatida madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilish va ularni turizm sohasi bilan uzviy bog‘lash borasida so‘nggi yillarda sezilarli ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Davlat darajasida qabul qilingan Prezident Qaror va Farmonlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar ushbu yo‘nalishda tizimli o‘zgarishlar uchun mustahkam asos yaratilayotganlikdan dalolat berib turibdi.

Mazkur yuqoridagi o‘rganilgan holatlarni bartaraf etish va madaniy merosni saqlash tizimini yanada takomillashtirish va samarali boshqarish maqsadida quyidagi **amaliy takliflarni ilmiy tadqiqotda keltirishni maqsadga muvofiq deb bildik**:

*1.**Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash: m**adaniy merosni saqlashni faqat davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish yetarli emas. Shu bois, xalqaro grantlar, xususiy homiylik, turizm daromadlari va donor tashkilotlar mablag‘lari asosida ishlaydigan maxsus “Madaniy meros jamg‘armasi”ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

*2.**Kadrlar salohiyatini oshirish: v**iloyatda restavratorlar, arxeologlar va san’atshunos kadrlar yetishmasligini e’tiborga olib, Samarqand davlat universiteti va Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti negizida “Restavratsiya va madaniy meros texnologiyalari” bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlarini ochish lozim.

***3.Raqamli monitoring tizimini joriy etish: b**archa madaniy meros obyektlari bo‘yicha yagona raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. GIS texnologiyalari asosidagi “Smart Heritage” monitoring tizimi yodgorliklarning texnik holatini doimiy kuzatish, tahlil qilish va tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi.

*4.**Mahalliy jamoalarni jarayonga jalb etish:*** “Mahalla – meros” dasturini amalga oshirish orqali mahalliy aholining tarixiy obidalarni asrashdagi ishtirokini kengaytirish zarur.

*5.**Turizm va madaniy meros integratsiyasini rivojlantirish: t**arixiy obidalar atrofida turistik xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish, mehmonxona, (tarjimonlik) gidlik, hunarmandchilik va milliy gastronomiya xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali yodgorliklarni saqlash jarayonini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash mumkin.

*6.**Huquqiy-me’yoriy bazani yangilash:**2001-yilda qabul qilingan “Madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun bugungi talab va texnologik sharoitlarga javob bermayotganligini e’tiborga olib, yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqish va restavratsiya ishlarida yagona standartlarni belgilash zarur.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi Samarqand viloyatida madaniy merosni saqlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, tarixiy yodgorliklar nafaqat asrab-avaylanadi, balki ular mintaqaviy iqtisodiyot, turizm va ijtimoiy rivojlanishning barqaror omiliga aylanadi.

Umuman olganda, madaniy merosni asrab-avaylash — bu faqat o‘tmish xotirasini saqlash emas, balki xalqning kelajakka bo‘lgan mas’uliyatini ifodalovchi jarayondir. Shu bois, Samarqand viloyatida madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rilishi lozim degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida. – Toshkent: 2001-yil 30-avgust, 269-II-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Madaniy merosni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. – Toshkent: 2022-yil 15-mart, PQ–89-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tarixiy shaharlarning me’moriy qiyofasini saqlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent: 2023-yil 18-iyul, PQ–144-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni xalqaro turizm zanjiriga integratsiya qilish dasturi to‘g‘risida. – Toshkent: 2024-yil 10-yanvar, PF–102-son.
5. UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. – Paris: 1972.
6. Samarqand viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2019-2024 yillardagi hisobot va statistik ma’lumotlari.
7. Riegl, A. The Modern Cult of Monuments: Its Character and Its Origin. – Oppositions, 1982.
8. Ruskin, J. The Seven Lamps of Architecture. – London: Smith, Elder & Co., 1849.
9. Jokilehto, J. A History of Architectural Conservation. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 1999.
10. Amanbayev, A. Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishning ilmiy asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2018.
11. G‘ulomov, P.N. Samarqandning tarixiy-me’moriy merosi va turizmni rivojlantirish masalalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
12. Erkinova, F.F. Madaniy merosni boshqarishda raqamli texnologiyalar va monitoring tizimining roli. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, 2024.

MINTAQA IQTISODIYOTIDA KLASTERLAR IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kadirov San'at Yuldashevich
Urganch Ranch universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273062

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari yoritib berilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosa yoritilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются содержание, специфические особенности, существующие возможности и направления их эффективного использования в региональной экономике. Также приводятся выводы об эффективном использовании кластерных возможностей в региональной экономике.*

Abstract*. This article discusses the content, specific features, existing opportunities and directions for their effective use in the regional economy. It also provides a conclusion on the effective use of cluster opportunities in the regional economy.*

Kalit so'zlar. *Mintaqa, klaster, imkoniyat, yo'nalish, samaradorlik, rivojlantirish, innovatsiya.*

Ключевые слова*. Регион, кластер, возможность, направление, эффективность, развитие, инновации.*

Key words*. Region, cluster, opportunity, direction, efficiency, development, innovation.*

Kirish. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klaster yondashuvi zamonaviy va samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, klasterlar ma'lum bir hududda joylashgan, o'zaro bog'liq ishlab chiqaruvchilar, ta'lim va ilmiy muassasalar hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar majmuasidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, raqobat ustunliklarini shakllantirishda klasterlar muhim rol o'ynaydi. Mintaqalar iqtisodiyotida klasterlarning rivojlanishi esa hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladi. Bu orqali tarmoqlarning mintaqaviy konsentratsiyasi shakllanadi va mintaqada firmalar uchun yuqori raqobatbardosh ustunliklarni shakllantiradi. Ushbu klasterlar mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ichki bozorni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Ya'ni, tadqiqotlarga asosan, klasterlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, ilm-fan va boshqa sohalardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hududiy jihatdan yaqinligi va o'zaro bog'liqligiga asoslanadi [1]. Ushbu bog'liqlik klasterlarning mavjud imkoniyatlarini belgilaydi. Yana bir tadqiqotlarga asosan, klasterlarda erishilgan tarmoq samarasi mavjud ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirib, natijada innovatsion sinergiya mahsulot xilma-xilligini kengaytirishga olib keladi [2]. Bu orqali klasterlar iqtisodiyotning turli sohalarida shakllanishi mumkin bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning hududiy guruhlashuvini belgilaydi. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, klasterlar orqali yangi iqtisodiyot sharoitida globallashuv, axborotlashtirish

va innovatsiyalar taraqqiy qiladi hamda bu iqtisodiy rivojlanishi amalga oshiriladi [3]. Ya'ni, klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga qaratiladi.

Yana boshqa bir tadqiqotlarda klasterlar birlashishga qaror qilgan institutlarning rejalashtirilgan natijalari, darajasi, mezonlari va samaradorlikni belgilaydigan rivojlanish dasturi bo'lishi qayd etiladi [4]. Unga ko'ra, klasterli yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholi farovonligini oshirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tadqiqotlarga binoan, klasterli yondashuv yangi boshqaruv texnologiyasi bo'lib, u alohida hududlar, tarmoqlar va davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [5]. Bu borada klaster klasterli yondashuv asosida tashkil etiladi. Yana boshqa xil tadqiqotlarga asosan, klasterlar mintaqa, sektor, resurslar va klaster ishtirokchilari ehtiyojlariga qarab barcha shakl va o'lchamlarda bo'ladi [6]. Unga ko'ra, klasterlarni tashkil etish uni samarali boshqarish asosida ta'minlanishi lozim. Boshqa tadqiqotlarda esa klasterlar tarmoq ichida kooperatsiyani kuchaytirib, korxonalar o'rtasida resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi [7]. Unga asosan, klasterlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy tarmoqlarini asosiy imkoniyatini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, eksport salohiyatini kuchaytiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Shu bois, klaster imkoniyatlaridan keng foydalanish hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mintaqalarda klaster siyosati faol amalga oshirilmoqda. Bu borada paxta-to'qimachilik klasterlari soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida klasterlar qamrovi 70 % dan ziyod. To'qimachilik mahsulotlari eksportida klasterlar ulushi esa 60 % gacha ulushga ega. Ushbu klasterlar orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan. Ayrim hududlarda (Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlari) klasterlar hisobiga sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshgan.

So'nggi yillarda klaster yondashuvi dunyo va milliy iqtisodiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Tahlillarga ko'ra, rivojlangan davlatlarda klasterlar hissasi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 40-60 % ini tashkil etadi. Yevropa davlatlarida sanoat korxonalarining 50 % dan ortig'i klaster tizimida faoliyat yuritadi. Klasterlar joriy etilgan hududlarda mehnat unumdorligi o'rtacha 20-30 % ga yuqoridir. Innovatsion mahsulotlar ulushi esa klaster hududlarida 1,5-2 barobar ko'proqni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar klasterlar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri ekanligini ko'rsatadi. Klaster tizimini rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini ko'paytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu borada davlat klasterlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlar ko'p jihatdan qiyinchiliklarni yengib o'tish, samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga bog'liq bo'ladi.

Avvalo, ushbu klasterlar mintaqa iqtisodiyotida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Klasterlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Bu esa yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga olib keladi.

- bandlikni oshirish. Klasterlar doirasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

- eksport salohiyatini kuchaytirish. Klasterlar mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish imkonini kengaytiradi. Bu valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

- innovatsiyalarni rivojlantirish. Ilmiy muassasalar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik yangi texnologiyalarni joriy etishga sharoit yaratadi.

Shuningdek, mintaqada klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ixtisoslashuvni aniq belgilash. Har bir hudud o‘z resurslari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma’lum sohaga ixtisoslashishi lozim.

- infratuzilmani rivojlantirish. Transport, logistika va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish klaster samaradorligini oshiradi.

- investitsiyalarni jalb qilish. Xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish klasterlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

- kadrlar tayyorlash. Malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash klaster rivojining muhim sharti bo‘lib qaraladi.

- raqamlashtirish. Axborot texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va boshqaruvni samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda klaster siyosati faol rivojlanmoqda. Ushbu klasterlar orqali xom ashyoni chuqur qayta ishlash, eksport hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga erishilmoqda. Unga asosan, klasterlar samaradorligini oshirish raqobat muhitini rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlashga, raqamli texnologiyalarni joriy etishga va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon yaratadi. Shularga asosan, mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish

№	Yo‘nalishlar	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Ixtisoslashuvni belgilash	Hudud resurslariga mos soha tanlash	Samaradorlik va raqobatbardoshlik oshadi
2	Infratuzilmani rivojlantirish	Transport, logistika va energiya tizimlarini yaxshilash	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi
3	Investitsiyalarni jalb qilish	Xorijiy va mahalliy sarmoyalarni kiritish	Yangi loyihalar va ish o‘rinlari yaratiladi
4	Innovatsiyalarni joriy etish	Yangi texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni tatbiq qilish	Mahsulot sifati va hajmi oshadi
5	Kadrlar tayyorlash	Mutaxassislarni o‘qitish va malakasini oshirish	Samarali mehnat resurslari shakllanadi
6	Raqamlashtirish	Axborot texnologiyalarini joriy qilish	Boshqaruv va ishlab chiqarish optimallashadi
7	Eksportni rivojlantirish	Tashqi bozorlarga chiqishni qo‘llab-quvvatlash	Valyuta tushumi oshadi
8	Kooperatsiyani kuchaytirish	Korxonalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish	Qo‘shimcha qiymat zanjiri shakllanadi

9	Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Imtiyozlar va dasturlar orqali yordam ko‘rsatish	Klaster barqaror rivojlanadi
10	Ilmiy-tadqiqotni rivojlantirish	Ilmiy markazlar bilan hamkorlik	Innovatsion mahsulotlar yaratiladi

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqa iqtisodiyotida klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish kompleks yondashuvni talab etadi. Eng avvalo, bu borada hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatiga mos ixtisoslashuvni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu asosda infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtiriladi. Bu bo‘ymcha innovatsiyalar va raqamlashtirishni joriy etish klaster samaradorligini oshirishda asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Malakali kadrlar tayyorlash esa ushbu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi. Korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish orqali qo‘shimcha qiymat zanjiri shakllanib, mahsulot raqobatbardoshligi ortadi. Ular bilan birgalikda, davlat tomonidan beriladigan qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar va strategik dasturlar klasterlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish innovatsion mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishlarni uyg‘un ravishda amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

